



MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA ILM-FAN RIVOJLANISHINING ASOSIY BOSQICHLARI VA INSTITUTIONAL ISLOHOTLAR

Bekmuratova Miyrigul Erbaevna

O'zbekiston madaniyat va san'at instituti Nukus filiali

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22247008>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 27-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 29-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 31-avgust 2026 yil

KEYWORDS

O'zbekiston, mustaqillik, ilm-fan, Fanlar akademiyasi, ilmiy tadqiqot, ilmiy kadrlar, fan va ta'lim integratsiyasi, innovatsiya, ilmiy salohiyat, ilmiy islohotlar.

ABSTRACT

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O'zbekistonda ilm-fan sohasining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari tarixiy jihatdan tahlil qilinadi. Ilmiy kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi, Fanlar akademiyasi faoliyatidagi o'zgarishlar, ilmiy-tadqiqot muassasalarining rivojlanishi hamda fan va ta'lim integratsiyasini kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritiladi. Shuningdek, ilmiy ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va xalqaro ilmiy hamkorlikni kengaytirish jarayonlarining ahamiyati tahlil qilinadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biri sifatida ilm-fanni rivojlantirish, ilmiy salohiyatni saqlab qolish va yangi sharoitga mos ilmiy boshqaruv tizimini shakllantirish zarurati yuzaga keldi. Sobiq ittifoq davrida ilmiy faoliyat ko'p jihatdan markazlashgan tizimga bog'liq bo'lganligi sababli, mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston oldida milliy ilmiy siyosatning tashkiliy, huquqiy va moliyaviy asoslarini yaratish vazifasi turardi. Shu nuqtai nazardan, mustaqillik yillaridagi ilm-fan taraqqiyotini oddiy miqdoriy o'sish emas, balki ilmiy boshqaruv, kadrlar tayyorlash, ilmiy muassasalarni qayta tashkil etish, ta'lim va fan integratsiyasi, xalqaro hamkorlik hamda innovatsion faoliyatning bosqichma-bosqich shakllanish jarayoni sifatida baholash maqsadga muvofiqdir [5].

Mustaqillikning dastlabki bosqichida eng muhim masalalardan biri yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlashning milliy tizimini yaratish edi. 1992-yilda ilmiy kadrlar tayyorlash va ularning ilmiy darajasini baholash bilan bog'liq faoliyatni muvofiqlashtiruvchi Oliy attestatsiya komissiyasining tashkil etilishi shu ehtiyojdan kelib chiqdi. Mazkur institutning tashkil etilishi O'zbekistonning ilmiy darajalar berish va ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish masalasida mustaqil tizimga o'tganini anglatar edi. Natijada ilmiy salohiyatni milliy manfaatlar asosida shakllantirish, ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlarini mamlakat taraqqiyoti bilan bog'lash uchun huquqiy va tashkiliy zamin yaratildi [4, 627-628].

O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining 1992-yilning iyul oyidagi "Ilm-fanni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish to'g'risida"gi farmoni asosida ilm-fanni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Olimlarning xorijiy ilmiy markazlarda tajriba orttirishi, xalqaro ilmiy aloqalarning

kengayishi hamda ilmiy natijalarni amaliyot bilan bog'lashga intilish kuchaydi. Bu jarayon O'zbekiston ilm-fanining sobiq ittifoq doirasidagi nisbatan yopiq tizimdan xalqaro ilmiy makonga bosqichma-bosqich chiqib borishiga imkon berdi. Shu davrdan boshlab ilmiy faoliyatni faqat nazariy natija bilan cheklab qo'ymasdan, uning iqtisodiyot, ishlab chiqarish va texnologik taraqqiyotga ta'sirini kuchaytirish zarurati dolzarb masalaga aylandi.

Mustaqillik yillaridagi ilmiy siyosatning muhim xususiyatlaridan biri tarixiy ilmiy merosni qayta tiklash va uni zamonaviy fan taraqqiyotining ma'naviy asoslaridan biri sifatida talqin etish bo'ldi. 1997-yilda Xorazm Ma'mun akademiyasining qayta tiklanib, O'zbekiston Fanlar akademiyasining mintaqaviy bo'linmasi sifatida tashkil etilishi buning yorqin misolidir. Mazkur voqea nafaqat qadimgi ilmiy an'analarni e'tirof etish, balki Xorazmning tarixan shakllangan ilmiy salohiyatini zamonaviy tadqiqotlar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi. Shuningdek, 2000-yili Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondi dunyoning eng boy qo'lyozmalar xazinasidan biri sifatida YuNESKO madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishi O'zbekistonda tarix, manbashunoslik, sharqshunoslik va madaniy merosni o'rganish sohalarining rivojlanishi uchun muhim ilmiy asos yaratdi. Bu holat mustaqillik davrida ilm-fan siyosati faqat texnik va tabiiy yo'nalishlar bilan chegaralanmaganini, balki milliy tarix va ilmiy merosni tadqiq etishga ham katta e'tibor qaratilganini ko'rsatadi.

2006-yillarga kelib ilmiy faoliyatni muvofiqlashtirish va innovatsion yo'nalishga burish jarayoni kuchaydi. Fan va texnologiyalar rivojlanishini muvofiqlashtirishga qaratilgan boshqaruv tuzilmalari tashkil etilishi ilmiy tadqiqotlarni mamlakatning ustuvor iqtisodiy va ijtimoiy vazifalari bilan bog'lash zaruratidan kelib chiqdi. Bu bosqichda ilmiy tashkilotlar va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ilmiy ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy qilish, xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish va yuqori texnologiyali tadqiqotlarga ko'proq e'tibor berish asosiy vazifalardan biri bo'ldi.

2008-yildan innovatsion g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni namoyish etishga qaratilgan respublika yarmarkalarining tashkil qilinishi ilm-fan bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarni amaliy jihatdan mustahkamlashga xizmat qildi. Mazkur yarmarkalarda minglab ilmiy ishlanmalarning taqdim etilishi va ularni joriy etish bo'yicha ko'plab shartnomalarning tuzilishi ilmiy natijalarni iqtisodiy aylanishga kiritish mexanizmi shakllanayotganidan dalolat beradi. Bu jarayonning tarixiy ahamiyati shundaki, ilmiy faoliyatga faqat maqola, monografiya yoki nazariy izlanish sifatida emas, balki iqtisodiy qiymat yaratuvchi omil sifatida qarash kuchaydi. Shunday qilib, innovatsion faoliyat ilm-fan siyosatining alohida yo'nalishiga aylana boshladi [1].

O'zbekiston olimlarining mustaqillik davridagi faoliyati fan tarmoqlarining kengligi bilan ham ajralib turadi. Energiya va xomashyoni tejash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kimyo, biotexnologiya, nanotexnologiya, qishloq xo'jaligi, ekologiya, tibbiyot, farmakologiya, geologiya, geofizika va seysmologiya sohalarida tadqiqotlarning olib borilishi ilmiy izlanishlar tarkibining mamlakat ehtiyojlariga mos ravishda shakllanganini ko'rsatadi. Ayniqsa, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolarni o'rganish, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish va sog'liqni saqlashga xizmat qiluvchi ilmiy ishlanmalar O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti bilan bevosita bog'liq edi.

Gumanitar fanlarda ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Arxeologiya sohasidagi muntazam tadqiqotlarning kengayishi, maxsus ilmiy to'plam va jurnallarning nashr etilishi, qadimgi

shaharlar tarixining qayta o'rganilishi milliy tarixni ilmiy asosda tiklash imkoniyatlarini kengaytirdi. Arxeologik izlanishlar natijasida ayrim qadimiy shaharlarning shakllanish davri va tarixiy yoshi haqida yangi ma'lumotlar olinishi tarix fanining manbaviy bazasini boyitdi. Mustaqillik sharoitida bunday tadqiqotlarning kuchayishi tarixiy xotirani tiklash, milliy davlatchilik ildizlarini chuqur o'rganish va O'zbekiston hududidagi qadimgi sivilizatsiyalarning jahon tarixidagi o'rnini ilmiy asoslash bilan chambarchas bog'liq bo'ldi.

Ilm-fan taraqqiyotida biologiya va kimyo yo'nalishlarining rivoji ham muhim o'rin egalladi. O'simlik moddalari kimyosi, tabiiy birikmalar, tibbiyot va farmatsevtika sohalarida yaratilgan ilmiy ishlanmalar xalqaro ilmiy hamjamiyat e'tiborini tortdi. Bu esa O'zbekistonda ayrim ilmiy maktablarning mustaqillik sharoitida ham o'z an'alarini saqlab qolib, xalqaro ilmiy almashinuvga qo'shila olganini ko'rsatadi. Ilmiy asarlarning xorijiy tillarda nashr etilishi va xalqaro ilmiy doiralarda tan olinishi milliy ilm-fanning xalqaro integratsiyasi kuchayayotganining muhim ko'rsatkichidir.

Mustaqillik yillarida ilm-fan rivojida eng dolzarb masalalardan biri fan va ta'lim integratsiyasini kuchaytirish bo'ldi. Ilmiy tadqiqot institutlari ilmiy natijalar yaratgan bo'lsa, oliy ta'lim muassasalari asosan kadrlar tayyorlash bilan shug'ullanar edi. Ushbu ikki tizim o'rtasida uzviy aloqa yetarli darajada shakllanmasligi ilmiy natijalarning ta'lim jarayoniga tez kirib borishiga va yosh tadqiqotchilarni fundamental tadqiqotlarga jalb etishga to'sqinlik qilardi. Shu sababli ilmiy-o'quv markazlari va ilmiy-ta'lim innovatsion markazlarining tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etdi. Fizika-texnika, qayta tiklanuvchi energiya, immunologiya, biotibbiyot kabi yo'nalishlarda tashkil etilgan markazlar fan, ta'lim va amaliyot o'rtasidagi aloqani kuchaytirishga xizmat qildi.

2012-yildan boshlab ilmiy muassasalarning ayrimlarini tegishli oliy ta'lim muassasalari bilan yaqinlashtirish jarayoni ham kuzatildi. Mazkur yondashuvning asosiy maqsadi ilmiy tadqiqotlarning oliy ta'lim tizimiga integratsiyasini kuchaytirish va mavjud ilmiy salohiyatdan kadrlar tayyorlash jarayonida samaraliroq foydalanish edi. Biroq bunday tashkiliy o'zgarishlar faqat institutlarni bir tizimdan boshqasiga o'tkazish bilangina cheklanmasligi, ilmiy mustaqillik, fundamental tadqiqotlarning uzluksizligi va uzoq muddatli ilmiy maktablarni saqlash bilan uyg'un olib borilishi zarur edi. Shu sababli keyingi davrda ilmiy muassasalarni qayta tiklash va Fanlar akademiyasining ilmiy salohiyatini mustahkamlashga ehtiyoj tug'ildi [3, 186-190].

Ilmiy kadrlar tayyorlash tizimida ham bir necha marta tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Dissertatsiyalarni himoya qilish va oliy ilmiy darajalarni berish tizimini xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirishga qaratilgan islohotlar ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini oshirish maqsadini ko'zlagan edi. Biroq amaliy tajriba ilmiy darajalar tizimida milliy ilmiy an'alar, mavjud ilmiy maktablar va xalqaro standartlar o'rtasida maqbul nisbatni topish zarurligini ko'rsatdi. Natijada 2017-yildan falsafa doktori, ya'ni PhD va fan doktori, ya'ni DSc darajalarini o'z ichiga olgan ikki bosqichli tizimning joriy etilishi ilmiy kadrlar tayyorlashning yangi bosqichini boshlab berdi. Mazkur tizim yosh tadqiqotchilarning ilmiy faoliyatga bosqichma-bosqich kirib kelishi va yuqori darajadagi ilmiy mutaxassislarni tayyorlash uchun nisbatan izchil mexanizm yaratdi.

2016–2017-yillar O'zbekiston ilm-fani tarixida yangi bosqich sifatida namoyon bo'ldi. Bu davrda ilmiy tadqiqotlar, innovatsion faoliyat va fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qayta belgilandi. Fanlar akademiyasining faoliyatini takomillashtirish, avval boshqa tuzilmalarga o'tkazilgan bir qator ilmiy-tadqiqot

muassasalarini akademiya tizimiga qaytarish, yangi ilmiy bo'limlarni tashkil etish va akademik ilmiy maktablarning mavqeini tiklashga qaratilgan choralari ilmiy boshqaruv tizimining qayta ko'rib chiqilganini ko'rsatdi [2, 563-565].

Fanlar akademiyasining haqiqiy a'zolari tarkibini yangilash ham bu jarayonning muhim qismi bo'ldi. Uzoq tanaffusdan so'ng yangi akademiklarning saylanishi ilmiy maktablar davomiyligini ta'minlash, tajribali olimlarning ilmiy jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash va yosh tadqiqotchilar uchun ilmiy yetakchilik muhitini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ilm-fan taraqqiyoti faqat moddiy mablag' yoki ilmiy muassasalar soniga bog'liq emas. Uning barqaror rivojlanishi kuchli ilmiy maktablar, avlodlar davomiyligi, ilmiy erkinlik va yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan akademik ilmiy maktablarni tiklash O'zbekiston ilmiy salohiyatini mustahkamlashning muhim omillaridan biri bo'ldi.

Innovatsion rivojlanishga alohida davlat boshqaruvi darajasida e'tibor berilishi ham ilmiy siyosatdagi sifat jihatdan yangi yondashuvni namoyon etdi. Ilmiy ishlanmalarni iqtisodiyot tarmoqlari, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy soha va atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'lash vazifasi qo'yildi. Natijada ilmiy tadqiqot natijalarining amaliy samaradorligi, tijoratlashtirish imkoniyati va iqtisodiyotdagi real muammolarni hal qilishdagi hissi ilmiy faoliyatni baholashning muhim mezonlaridan biriga aylana boshladi. Bu ilm-fanning fundamental mohiyatini inkor etmagan holda, fundamental izlanish bilan amaliy natija o'rtasidagi uzviylikni mustahkamlashga qaratilgan edi.

Xulosa. Umuman olganda, mustaqillik yillarida O'zbekistonda ilm-fan rivojini bir necha tarixiy bosqichga ajratish mumkin. Dastlabki bosqichda milliy ilmiy boshqaruv va ilmiy kadrlarni attestatsiyadan o'tkazish tizimi shakllantirildi, mavjud ilmiy salohiyatni saqlash va xalqaro aloqalarni yo'lga qo'yishga e'tibor berildi. Keyingi bosqichda ilm-fan va innovatsiya, ilmiy tadqiqot va ishlab chiqarish o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga urinishlar kuchaydi. Fan va ta'lim integratsiyasiga qaratilgan tashkiliy o'zgarishlar esa ilmiy muassasalar va oliy ta'lim o'rtasidagi munosabatlarni qayta shakllantirdi. 2016–2017-yillardan boshlab Fanlar akademiyasining mavqeini mustahkamlash, ilmiy muassasalarni qayta tashkil etish, ikki bosqichli ilmiy darajalar tizimini joriy qilish va innovatsion rivojlanishga yangi yondashuvni shakllantirish jarayoni boshlandi. Shu tariqa, O'zbekistonning mustaqillik yillaridagi ilm-fan taraqqiyoti murakkab va bosqichma-bosqich kechgan transformatsiya sifatida namoyon bo'ladi. Bu davrda ayrim tashkiliy tajribalar qayta ko'rib chiqildi, ayrim ilmiy tuzilmalar qayta tashkil etildi, biroq umumiy yo'nalish milliy ilmiy salohiyatni mustahkamlash, ilmiy kadrlar tayyorlashni takomillashtirish, tarixiy ilmiy maktablarni tiklash va zamonaviy innovatsion rivojlanish mexanizmlarini yaratishga qaratildi. Ilm-fanning mamlakat taraqqiyotidagi haqiqiy samarasi esa ilmiy tadqiqotlarning sifati, ularning jamiyat ehtiyojlariga mosligi, yosh olimlar uchun barqaror ilmiy muhit yaratilishi, fundamental va amaliy fan o'rtasidagi muvozanat hamda ilmiy natijalarning ta'lim, ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotga izchil tatbiq etilishi bilan belgilanadi. Shu sababli mustaqillik davridagi ilm-fan islohotlarini faqat alohida qarorlar yoki tashkilotlar tarixi sifatida emas, balki O'zbekistonning intellektual salohiyatini shakllantirish va milliy taraqqiyotning ilmiy asoslarini yaratishga qaratilgan uzluksiz tarixiy jarayon sifatida baholash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Haydarov, O. B. I. D., & Qoraboyev, S. U. H. R. O. B. (2022). O 'zbekistonning eng yangi tarixi. SamDVMCHBU. Samarqand.-2022.
2. Ismatovna, A. S. (2026). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGI 35-YILLIGI: TARIXIY YUTUQLAR, ISLOHOTLAR VA KELAJAK ISTIQBOLLARI. Новости образования: исследование в XXI веке, 4(45), 563-566.
3. Nomozov, M. M. O., & Haydarov, S. A. (2021). OZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TA'LIM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR. Scientific progress, 1(5), 186-190.
4. O'tkirovich, M. A. (2025). O 'ZBEKISTON MUSTAQILLIGI; TARIXIY SABOQLAR VA BUGUNGI YUTUQLAR. TA'LIM IFTIXORI, 1(1), 627-628.
5. G'aniyeva, H. (2022). O 'ZBEKISTONDA TA'LIM SOHASIDA OLIB BORILAYOTGAN ISLOHATLAR. Maktabgacha ta'lim jurnali, 5(5).

